



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



# BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 174 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJIRATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI .....	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH .....	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
<b>Davronova G.O., Tursunova G.R.</b>	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES .....	96
<b>Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich</b>	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
<b>Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
<b>Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI .....	115
<b>Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	119
<b>Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK: ZAMONAVIY INTEGRATSIYA YO'NALISHLARI.....	123
<b>A'zamova Feruza Abduholiq qizi, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
<b>Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
<b>Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova</b>	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSHDAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	136
<b>Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna</b>	
WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES THROUGH THE USE OF MONETARY AND CREDIT INSTRUMENTS IN BANKS .....	141
<b>Mustafaeva Khurliman Azat kizi, Baymuratova Zina Aqilbekovna</b>	
KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI .....	147
<b>Xakimova Go'zal Akbar qizi, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich</b>	
TAX SYSTEM FOR SMALL BUSINESSES .....	152
<b>A. Juzbaev, Davletyarova Guldana</b>	
WAYS TO DEVELOP THE PRACTICE OF USING INNOVATION IN BANKS.....	156
<b>Umedov Abdullo, Khodjimamedov Akmal Ashurovich</b>	
IMPROVING THE ACCOUNTING OF INCOME FROM CORE ACTIVITIES IN SAM GLASS LLC.....	161
<b>Usmanov Shakhzod Shokhrukhovich, Musaeva Shoira Azimovna</b>	
JAMIYATDA YOSHLAR ISHSIZLIGI VA UNING IQTISODIY OQIBATI.....	167
<b>Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U. Umarov</b>	



# JAMIYATDA YOSHLAR ISHSIZLIGI VA UNING IQTISODIY OQIBATI



**Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi**  
TDIU, "Bank ishi" fakulteti BIA-51 guruh talabasi

Scientific supervisor:

**F.U. Umarov**  
TDIU, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dosenti i.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar ishsizligining mavjud holati, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar, xususan, demografik o'sish, ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik, hududlar bo'yicha iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar, yoshlarning kasbiy ko'nikmalari va tajribasining yetishmasligi kabi jihatlar chuqur tahlil qilingan. Maqolada muammoni bartaraf etish uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, dual ta'limni keng joriy etish, yoshlarni startap va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish kabi takliflar berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar ishsizligini kamaytirish barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka erishishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar ishsizligi, bandlik, mehnat bozori, ta'lim tizimi, yoshlar siyosati.

**Abstract:** This article presents an in-depth analysis of the current state of youth unemployment in Uzbekistan and the main factors influencing its development, including demographic growth, misalignment between the education system and the labor market, regional economic development disparities, and a lack of professional skills and experience among young people. The article proposes measures to address the problem, including modernizing the education system, widely introducing dual education, engaging young people in start-ups and entrepreneurship, and developing industrial and service infrastructure in the regions. The study demonstrates that reducing youth unemployment is an important factor in achieving sustainable economic growth and social well-being.

**Key words:** youth unemployment, employment, labor market, education system, youth policy.

**Аннотация:** В данной статье представлен углубленный анализ текущего состояния молодежной безработицы в Узбекистане, основных факторов, влияющих на ее формирование, в частности, демографического роста, несоответствия системы образования и рынка труда, различий в уровне экономического развития по регионам, а также недостатка профессиональных навыков и опыта у молодежи. В статье предлагаются меры по устранению проблемы, такие как модернизация системы образования, широкое внедрение дуального образования, широкое вовлечение молодежи в стартапы и предпринимательскую деятельность, а также развитие промышленной и сервисной инфраструктуры в регионах. По результатам исследования обосновывается, что снижение молодежной безработицы является важным фактором достижения устойчивого экономического роста и социального благополучия.

**Ключевые слова:** молодежная безработица, занятость, рынок труда, система образования, молодежная политика.



## KIRISH

Yoshlar ishsizligi har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim masalalardan biridir. O'zbekistonda aholining katta qismini yoshlar tashkil etganligi sababli mehnat bozori doimiy ravishda ishchi kuchi taklifi bilan to'lib boradi. Bu esa sifatli bandlikni ta'minlash, yoshlarning malakasini oshirish, kasbga yo'naltirish, innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Mazkur maqolada yoshlar ishsizligining asosiy sabablari, mavjud holati, unga ta'sir qiluvchi omillar va muammoni hal etishga qaratilgan takliflar tahlil qilinadi. Asosiy qism O'zbekiston demografik tarkibiga ko'ra, yoshlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bu demografik ustunlik iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyat bo'lishi bilan birga, yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini oshiruvchi omil ham bo'lishi mumkin. Yoshlar ishsizligining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, demografik hamda ta'lim tizimi bilan bog'liq omillar sifatida guruhlash mumkin.

Davlat tomonidan yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yoshlar daftari", "Yoshlar kelajagimiz", "Yoshlar tadbirkorligi" dasturlari doirasida kredit, grant, subsidiyalar ajratilishi, IT markazlarining tashkil etilishi, kasb-hunarga qayta tayyorlash kurslarining ko'paytirilishi yoshlar ishsizligini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi sanoat zonalari, innovatsion texnoparklar, xizmat ko'rsatish markazlarining tashkil etilishi ham yoshlar uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan mazkur yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, professorlar Sh.R.Xolmo'minov va K.Z.Xomitov o'zlarining tadqiqotlarida yoshlarni ish bilan ta'minlashning mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan samarali tashkiliy mexanizmlarining ta'siri aniq sotsiologik baholangan. Uning asosida yoshlarni ish bilan ta'minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan [3].

M.B.Tursunov tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, uni amalga oshirish usullari va vositalari nazariy jihatdan yoritilgan [4].

Yana bir tadqiqotchi M.Mirzakarimova tomonidan ishga joylashtirish, yoshlar bandligi bu davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qilishi, yoshlar bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi ekanligi alohida ta'kidlangan.

Bugungi kunda inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasidagi milliy strategiyaga bog'liq ekanligi, mehnat bozorida yoshlar ahvolini baholash zarurati yoshlar bu mamlakat kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang'ich sharoitlariga bog'liqligi bilan belgilanishi, bugungi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishi, shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilgan [5].

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish" masalalariga alohida urg'u berilgan [2].

Ushbu Harakatlar Strategiyasidan kelib chiqib, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, respublika yoshlari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga



oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish masalalarini hal etish ko'zda tutilgan.

Albatta, to'rtinchi ustuvor yo'nalishda ko'rsatilgan ushbu masalalar mehnat bozori mexanizmlarini tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv va uning natijalari tahlili o'rganilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar ishsizligi 15 dan 24 yoshgacha bo'lgan, ish joyi yo'q, lekin ish izlayotgan ishchi kuchining ulushini bildiradi. Yoshlar ishsizligi umumiy ishchi kuchidagi ishsizlikdan farq qiladi, chunki yoshlar ishsizligi darajasi butun dunyo bo'ylab kattalarnikidan doimiy ravishda yuqori bo'ladi. Yevropa Komissiyasi hisobotiga ko'ra, 2014–2024-yillarda Yevropa Ittifoqi yoshlari ishsizlik darajasi umumiy ishsizlik darajasidan taxminan ikki baravar yuqoriligi qolmoqda. Yoshlar ishsizligi murakkab masala, chunki u ko'pincha irqchilik, sinf, jins va kasta kabi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar bilan kesishadi. O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi taxminan 2024-yilda 10,94%. Bu ko'rsatkich 15–24 yosh toifasidagi ishsizlar, lekin faol ish izlayotgan ishchi kuchining foizini bildiradi. O'zbekistonda umumiy ishsizlik darajasi yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasidan ancha past bo'lib, 4,5% atrofida [18].

Ko'nikmalar yetishmaydi, ya'ni ta'lim maskanlari mehnat bozorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatmaydi. Bu esa, albatta, yoshlar orasidagi ishsizlikka ta'sir etadi. Ikkinchi sabab — ish tajribasining yo'qligi. Ish beruvchilar odatda tajribali mutaxassislarni afzal ko'radi. Yoshlar esa yangi bitirgan bo'lgani uchun tajriba orttirishga imkon topa olmaydi va shu sababdan ish topishga qiynaladi. Uchinchi omil — hududiy tengsizlik. Qishloqlarda ish o'rinlarining yetishmasligi yoshlarni shaharga ko'chishga yoki umuman ishsiz qolishga majbur qiladi. Shaharlarda ish o'rinlari ko'p bo'lgani bilan, unga joylashishda har xil muammolar kelib chiqishi tabiiy. To'rtinchi sabab — tadbirkorlik ko'nikmalarining pastligi. Ko'plab yoshlar o'z biznesini boshlashga jur'at qilmaydi yoki bilimga ega emas. Bu maktab davridan yoki universitet davrlarida biznes haqida, ishbilarmonlik haqida bilimlar yetarli berilmasligidan kelib chiqishi mumkin. Yana bir sabab — iqtisodiy strukturaning o'zgarishi.

Texnologik taraqqiyot sababli ba'zi kasblar yo'qolib, yangilari paydo bo'lmoqda. Yoshlar bu o'zgarishlarga tezda moslasha olmay qolmoqda. Bunga IT va shunga bog'liq sohalarni keltirish mumkin. Albatta, yoshlarning ishsiz qolishi milliy iqtisodiyotga ta'sir etadi, u bir nechta yo'nalishda zarar yetkazadi [12].

1. Ishchi kuchining ishsiz yotishi — ya'ni inson resurslaridan to'liq foydalanilmasligi. Har bir ishsiz yosh — foydalanilmagan iqtisodiy imkoniyatdir. Imkoniyatdan to'g'ri foydalanmaslik esa qiyinchilikka olib keladi.

2. Budjet tushumlarining kamayishi. Ishsizlar soliq to'lamaydi, bu esa davlat daromadlarini qisqartiradi.

3. Ijtimoiy xarajatlarning oshishi. Yoshlar uchun nafaqalar, subsidiyalar, ijtimoiy dasturlar — bular davlat budjetiga yuk bo'ladi.

4. Noformal iqtisodiyot va ijtimoiy beqarorlik. Ish topolmagan yoshlar ba'zida noqonuniy yo'llarga murojaat qiladi, bu esa jinoyatchilikning oshishiga olib keladi.

2025-yilda O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi ishsizlikka qarshi kurash yangi bosqichga qadam qo'yadi. Yetakchilarga yoshlar o'rtasidagi ishsizlikning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini, jumladan, yoshlarning noqonuniy faoliyatga, diniy ekstremizmga yoki jinoyatchilikka tushib qolish xavfi haqida eslatib o'tildi. Yunusobod, Asaka, Sharof Rashidov, Chiroqchi, Pastdarg'om tumanlari, Olmaliq va Buxoro shaharlarida ahvol ayniqsa qoniqarsiz deb topildi.


5. "Miya oqimi" (brain drain). Qobiliyatli yoshlar boshqa davlatlarga o'qishga yoki ishlashga ketadi. Bu esa mamlakatning intellektual salohiyatini kamaytiradi.

Yoshlar ishsizligini kamaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli choralar zarur:

1. Ta'limni mehnat bozoriga yaqinlashtirish. Amaliy mashg'ulotlarga asoslangan dual tizimni rivojlantirish. Bu borada davlatimizda yaqin yillarda katta ishlar amalga oshirilmoqda va natijalari kutilmoqda.



2. Kasbiy yo'naltirish xizmatlarini rivojlantirish. Maktab bosqichidan boshlab kasb tanlash bo'yicha maslahat berish va kasbga yo'naltirish darslarini to'g'ri olib borish (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda 2025-yildagi ishsizlik darajasi<sup>1</sup> [18]

3. Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash. Startaplar uchun grantlar, treninglar, soliq imtiyozlari. 2025-yilda O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi ishsizlikka qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlar sezilarli darajada oshirilmoqda, katta budjet ajratilmoqda va turli dasturlar ishga tushirilmoqda. Rejalashtirilgan budjet bilan keng ko'lamlı bandlik dasturi 126 trillion so'm (10 milliard dollarga yaqin), mikro-loyihalarni yaratish, kreditlar berish, kasb-hunar va tillarni o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, 400 million dollarlik jamg'arma yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlaydi, bunda banklar va moliya institutlari yoshlarga kredit va moliyaviy yordam berishda muhim rol o'ynaydi.

4. Stajirovka va amaliyot dasturlarini kengaytirish. Bitiruvchilarga korxonalarda tajriba orttirish imkonini berish.

5. Hududiy iqtisodiy rivojlanishga e'tibor. Qishloqlarda kichik biznesni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish.

Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida uy xo'jaliklarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalariga ko'ra, mamlakatda mehnat resurslari 20,3 million nafarni tashkil etmoqda. Iqtisodiy faol aholi soni 15,4 million nafar bo'lib, shundan 14,6 million kishi band, 781,6 ming kishi esa ishsiz hisoblanadi. Band aholining 8 millioni (55 foiz) rasmiy sektorda, 4,8 millioni (33 foiz) norasmiy sektorda faoliyat yuritmoqda, 1,8 million kishi (12 foiz) esa xorijda ishlamoqda. Shu bilan birga, rasmiy bandlar soni o'tgan davrga nisbatan 19 foizga oshgan, norasmiy bandlar esa 13,6 foizga kamaygan.

Iqtisodiy nafaol aholi 4,9 million kishini tashkil etadi. Ular orasida ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar – 2 million nafar (41 foiz), 2 yoshgacha bola parvarishi bilan band yoki tug'ish ta'tilida bo'lgan ayollar – 2,2 million nafar (44 foiz), ishlash istagi yoki imkoniyati yo'q shaxslar – 0,8 million nafar (15 foiz)ni tashkil qiladi.


2023-yilning 1-iyulida ishsizlik darajasi 8,1 foizni, 2024-yilda esa 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi yarim yilligida bu ko'rsatkich 5,1 foizga tushdi [18].

1 Muallif ishlanmasi



2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ushbu konsepsiyaning xalqaro miqyosda qabul qilingan ta'riflari va xususiyatlariga muvofiq barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadlarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish asosida yalpi ichki mahsulotning 2030-yilga qadar kamida 2 baravar ko'payishi ko'zda tutilmoqda.


Mamlakatning farovonligini oshirish ko'p jihatdan mamlakatning barqaror bandlikning o'sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qodirligiga bog'liq bo'ladi. O'zbekistonda 2020-yilda iqtisodiy faol aholi soni 14,797 million kishini tashkil etdi (umumiy aholining 43,2 foizi). Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni 2020-yilda 13,236 million kishini tashkil qildi va 2019-yilga nisbatan 2,3 foizga kamaydi. Shunday qilib, yoshlardagi ishsizlik darajasi (16 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ishsiz yoshlar shu yoshdagi iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushi) 24,1 foizni tashkil etdi. Mehnatga layoqatli yoshdagi ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 66,6 foizni, erkaklar orasida esa 80,5 foizni tashkil qildi (2-rasm) [19].



2-rasm. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlar<sup>2</sup>

2030-yilga kelib O'zbekistonning o'rtacha darajadan yuqori daromadga ega davlatlar qatoriga kirishining muhim tarkibiy qismi ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish asosida yuqori qo'shimcha qiymatli ish o'rinlarini yaratishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun hukumat yangi ishlab chiqarishlarni yaratishga, mavjudlarini texnik modernizatsiyalashga, infratuzilmani rivojlantirishga va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tashqi va ichki investitsiyalarning potensialini kengaytirish orqali faol investitsiya siyosatiga asoslangan tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda.

Yoshlar ishsizligi darajasi so'nggi yillarda biroz o'zgardi, lekin umuman olganda, umumiy ishsizlik darajasidan yuqoriligicha qolmoqda. Yoshlar jamiyatning eng faol, bilimli va yangilikka ochiq qatlamidir. Ular har qanday mamlakatning kelajagi va iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Biroq so'nggi yillarda nafaqat dunyoda, balki O'zbekistonda ham yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi oshib bormoqda. Bu faqat ijtimoiy muammo emas, balki milliy iqtisodiyotga ham bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada yoshlar ishsizligining asosiy sabablari, uning iqtisodiyotga ta'siri va yechim yo'llari muhokama qilinadi. Yoshlar o'rtasidagi ishsizlik ko'p omilli muammodir. Bunga aniq bir sabab emas, juda ko'p omillarni keltirish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlar<sup>3</sup>

2 Muallif ishlanmasi  
3 Muallif ishlanmasi



Uning birinchi sababi — ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi tafovutdir. Oliy o'quv yurtlarida olingan nazariy bilim ko'pincha amaliy mehnat talablari bilan mos kelmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'p hollarda yoshlar o'z qiziqishiga mos kasbni emas, balki ommaviy bo'lgan yo'nalishlarni tanlaydi — bu esa ortiqcha mutaxassislar soniga olib keladi. Mehnat bozorida ko'plab ish o'rinlari mavjud, biroq ular uchun malaka va zamonaviy ko'nikmalar yetishmaydi (IT, marketing, muhandislik). Davlat tomonidan ayrim dasturlar mavjud, biroq axborot yetkazish va monitoring ishlari sust — yoshlar bu imkoniyatlardan xabardor emas. Dunyo tajribalaridan misol keltiradigan bo'lsak, Germaniya davlatida dual ta'lim tizimi orqali yoshlar o'qish bilan birga ishlab, ish tajribasini oladi, natijada yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 7% dan past. Janubiy Koreya davlatida esa "Youth Start" dasturi orqali 18–35 yoshdagi yosh tadbirkorlar uchun maxsus grantlar va inkubator markazlar tashkil etilgan, bu esa yoshlar uchun katta rag'batlantirishdir. Qo'shni Qozog'iston davlatida esa "Yoshlar amaliyoti" dasturi bilan OTM bitiruvchilari davlat idoralari yoki kompaniyalarda 6–12 oy muddatda amaliyot o'tashi mumkin. Bunda men ham o'z fikr va taklifimni keltirib o'tmoqchiman [10]:

1. "Yoshlar mehnat portali": Maxsus onlayn platforma orqali yoshlar bo'sh ish o'rinlari, amaliyot, stajirovka va freelancing imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Hozirgi davrda hamma telefondan foydalangani bois, bu yoshlar uchun juda qulay.

2. Tadbirkorlikni erta yoshdan rivojlantirish: Maktablarda "Biznes asoslari" darslarini joriy etish orqali yoshlar o'z loyihalarini yaratishni o'rganadi va biznes haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladi, tavakkalchilik sirlarini o'rganadi.

3. "StartUp Village" loyihasi: Har bir viloyatda yoshlar uchun innovatsion g'oyalar markazlari tashkil etish orqali ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, buni hatto olis hududlarda amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy muammo hamdir. Agarda yoshlarning salohiyati to'liq ishga solinmasa, davlatning barqaror rivojlanishi xavf ostida qoladi. Shu boisdan ta'lim, ishga joylashtirish va tadbirkorlik yo'nalishlaridagi islohotlar faqat yoshlar uchun emas, balki butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Yoshlar imkoniyatga ega bo'lsa — mamlakat iqtisodiyoti ham rivojlanadi.

Yoshlar ishsizligining oldini olish uchun bir nechta istiqbolli yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish, dual ta'lim tizimini keng joriy etish zarur. Yoshlarni amaliyotga yo'naltirish, korxonalar bilan hamkorlikda stajirovkalar tashkil qilish, bitiruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. Bundan tashqari, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng targ'ib qilish lozim. Startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish, biznes reja tayyorlash bo'yicha treninglar tashkil etish natijasida yoshlarning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari kengayadi. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, IT markazlar orqali bepul o'qitish, xalqaro sertifikat olish imkonini yaratish yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023. // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025 yildagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7386867>
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. "Yoshlar bandligi bo'yicha yillik hisobotlar (2021–2024)".
4. Alimov R.X., Xolmo'minov B.J. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Jo'rayev Sh. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Universitet, 2019.
7. Qosimova M.M. Yoshlar bandligi va mehnat bozorida raqobatbardoshlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
8. "Ijtimoiy Fikr" markazi. Yoshlar bandligi bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar natijalari. – Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. (2023). Mehnat bozori va yoshlar siyosatiga oid tahliliy hisobot.
10. Islomov I. (2022). Ishsizlik va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
11. Eleusinova Q.T. Yoshlar orasidagi ishsizlikning iqtisodiyotga ta'siri. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала No-73Часть–1\_июль–2025
12. Jo'rayev Sh.A. Yoshlar ishsizligi: asosiy omillar va yechimlar. International conference of science & technology.
13. Siddiqov, A. (2021). Yoshlar ishsizligining kelib chiqish omillari va bartaraf etish choralari. Jurnal: Iqtisod va Jamiyat, No2, 45–50-betlar.
14. Nazarova, D. (2020). Yoshlar bandligini ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati. Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, No4, 33–37-betlar.
15. Jahon banki. (2022). Uzbekistan: Jobs, Growth and Inclusion. World Bank Country Report. <https://www.worldbank.org>
16. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). (2023). Global Employment Trends for Youth 2023. <https://www.ilo.org>



17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasi. "Mehnat bozori ko'rsatkichlari" statistik ma'lumotnomasi (2020–2024).
18. <https://stat.uz>
19. <https://yoshlar.kelajagimiz.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>